



**O‘ZBEKISTON MINTAQALARIDA SANOAT TARMOG‘INI
RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY JIHATLARI**

Mirzaxadjayeva Shahzoda

Samarqand iqtisodiyot

va servis instituti, “Real iqtisodiyot”

kafedraasi assistenti

shaxzodamirzaxadjayeva98@gmail.com

Ziyodova Rayhona

Samarqand iqtisodiyot

va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti

3-bosqich talabasi

rayhonaziyodova546@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston mintaqalarida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning hududiiy jihatlarini chuqur tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada O‘zbekistonning so‘nggi yillarda sanoatda erishgan sezilarli o‘shish sur‘atlari, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining oshishi va ishlab chiqarish tarkibidagi ijobiy o‘zgarishlar tan olingan. Shu bilan birga, mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosibliklar, sanoat korxonalarining geografik jihatdan notekis taqsimlanishi kabi muammolar dolzarbligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotda sanoatni mintaqaviy rivojlantirishning nazariy asoslari, mavjud institutsional mexanizmlar, xususan, erkin iqtisodiy zonalar va sanoat parklarining samaradorligi hamda ularning duch kelayotgan muammolari tahlil qilingan. Maqola yakunida mintaqaviy sanoatni diversifikatsiya qilish, modernizatsiya qilish va barqaror o‘shishini ta‘minlash bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar hamda strategik yo‘nalishlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Sanoat, mintaqaviy rivojlanish, erkin iqtisodiy zonalar, sanoat parklari, diversifikatsiya.

Kirish.

Sanoatning barqaror rivojlanishi har qanday davlat iqtisodiy o‘shishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston uchun ham sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, ayniqsa, mintaqalar kesimida muvozanatli va inklyuziv o‘shishni ta‘minlash mamlakatning strategik ustuvor vazifalaridan sanaladi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, 2017-2024 yillar oralig‘ida sanoat mahsulotlari hajmi 1,5 barobarga oshib, yillik o‘rtacha 6,2% o‘shish sur‘atini namoyish etdi. Natijada sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi



2017-yildagi 22,2% dan 2024-yilga kelib 26,4% ga yetdi. Bu o'sish tarkibiy o'zgarishlar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib, xomashyo yo'nalishidan ishlab chiqarish sektoriga o'tish tendensiyasi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ishlab chiqarish sanoati hajmi 2017-yilga nisbatan 1,6 barobarga oshib, umumiy sanoat hajmining 85% dan ortig'ini tashkil etdi. 2024-yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, mamlakatda sanoat mahsulotlari hajmi 885,8 trillion so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,8% o'sishni qayd etdi. Ishlab chiqarish sanoati ushbu hajmining 85,1% ini (753,6 trillion so'm) ta'minladi, kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi hissasi esa 27% dan 32,4% ga oshdi. Biroq, bu umumiy ijobiy ko'rsatkichlarga qaramay, mintaqalar o'rtasida sanoat rivojlanish darajasida sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda. Sanoat korxonalari va ishlab chiqarish quvvatlarining Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand kabi viloyatlar ma'lum hududlarda nisbatan yuqori darajada to'planishi boshqa mintaqalar uchun rivojlanish imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkin. Shu bois, sanoat rivojlanishining hududiy jihatlarini chuqur o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechimlari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish nihoyatda dolzarbdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston mintaqalarida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning hududiy jihatlarini kompleks tahlil qilish, asosiy omillar va institutsional mexanizmlarning samaradorligini baholash hamda barqaror mintaqaviy sanoat o'sishini ta'minlash bo'yicha strategik yo'nalishlarni belgilashdan iborat. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardir: mintaqaviy sanoat rivojlanishining nazariy asoslari va mavjud holatini o'rganish; sanoatni rivojlantirishning asosiy omillari va institutsional mexanizmlarini tahlil qilish; erkin iqtisodiy zonalar va sanoat parklarining samaradorligini baholash; mintaqaviy sanoatni diversifikatsiya qilish va modernizatsiya qilish bo'yicha strategik yo'nalishlarni ishlab chiqish hamda ilmiy asoslangan takliflarni shakllantirish demakdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirish masalasi iqtisodiy nazariya va siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Nazariy jihatdan, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda "o'sish qutblari" (growth poles) nazariyasi, sanoat klasterlari va agglomeratsiya iqtisodiyoti kabi tushunchalar muhim o'rin egallaydi. Bu nazariyalar ma'lum hududlarda ishlab chiqarish quvvatlarining to'planishi, infratuzilma va malakali kadrlar mavjudligi hisobiga iqtisodiy faoliyatning intensivlashuvini tushuntiradi. Biroq, bunday to'planishlar mintaqalararo nomutanosibliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin, shu sababli muvozanatli mintaqaviy rivojlanish siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning sanoat siyosati uzoq vaqt davomida davlat aralashuvi, imtiyozlar, import to'siqlari va katta davlat investitsiyalari orqali "milliy ishlab



chiqaruvchilarni” himoya qilishga qaratilgan edi. 1996-2016 yillar oralig‘ida yalpi ichki mahsulotning ba’zan 30% dan ortiq qismi faol daromad va resurslarni qayta taqsimlash orqali sanoatga yo’naltirilgan. Asosiy mexanizmlar eksportchilarning majburiy valyuta savdosi, fermerlarni arzon narxlarda paxta va g‘alla sotishga majburlash (qishloq xo‘jaligi daromadlarining 80% igacha sanoatga o‘tkazilgan), to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat investitsiyalari, soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlarni o‘z ichiga olgan. Yuqori bojxona to‘lovlari kabi proteksionistik choralar raqobatni cheklagan. Tadqiqotchilar ijobiy ishbilarmonlik muhitini yaratish, xususiy tadbirkorlik xarajatlarini kamaytirish va raqobatni rivojlantirish uchun ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etishni targ‘ib qiladilar.

Joriy holatga kelsak, O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarishi tarkibi xomashyo yo‘nalishidan yanada diversifikatsiyalangan tuzilmaga o‘tganligi bilan ajralib turadi. Ishlab chiqarish sanoati umumiy sanoat hajmining 85% dan ortig‘ini tashkil etmoqda. Avtomobilsozlik va elektrotexnika (2,9 barobar), to‘qimachilik va tikuvchilik (2 barobar), oziq-ovqat mahsulotlari (1,5 barobar), metallurgiya (chuqur qayta ishlash hisobiga 1,5 barobar) va qurilish materiallari (1,7 barobar) kabi sohalarda sezilarli o‘sish kuzatilgan. Eksportni diversifikatsiya qilish indeksi to‘qimachilik (8149,5), kimyo (8245,2), metallurgiya (8657,6) va elektrotexnika (8922,4) kabi sohalarda optimal diversifikatsiyani ko‘rsatadi. Bu esa O‘zbekistonning global Iqtisodiy murakkablik indeksida 145 mamlakat orasida 80-o‘ringa ko‘tarilishiga yordam berdi.

Mintaqaviy sanoatni muvaffaqiyatli rivojlantirish bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning orasida geografik joylashuv, tabiiy resurslar mavjudligi, malakali ishchi kuchi, rivojlangan infratuzilma (transport, energiya, kommunal tarmoqlar), bozorlarga chiqish imkoniyatlari, qulay investitsion muhit va innovatsion ekotizim muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda ushbu omillardan samarali foydalanishga qaratilgan institutsional mexanizmlar, xususan, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalar yaratilgan. Prezident Sh. Mirziyoyev raisligida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalar faoliyati samaradorligi tahlil qilingan bo‘lib, natijalar "qoniqarsiz" deb topilgan. Hozirda mamlakatda 14 ta erkin iqtisodiy zona va 7 ta yangi farmatsevtika yo‘nalishidagi zonalar faoliyat yuritmoqda. Tanlangan erkin iqtisodiy zonalarda umumiy qiymati 486 million dollarlik 62 ta loyiha amalga oshirilib, 4600 dan ortiq ish o‘rni yaratilgan. Kichik erkin zonalarda esa 535 milliard so‘mlik 1021 ta loyiha natijasida 9600 dan ortiq ish o‘rni yaratilgan va yana 11 ming ish o‘rni yaratish rejalashtirilgan. Kichik sanoat zonasidagi korxonalar ikki yil muddatga soliq imtiyozlaridan foydalanadilar. Biroq, Prezident tomonidan erkin iqtisodiy zonalaridagi murakkab protseduralar,



yer ajratishdagi byurokratiya, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning sekinligi va kommunal xizmatlarning beqarorligi tanqid qilingan. Ushbu muammolar mintaqalarda sanoat rivojlanishining to'liq salohiyatidan foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Yuqorida keltirilgan muammolarga yechim topish maqsadida reglamentlarni soddalashtirish, huquqiy bazani modernizatsiya qilish, yer va binolarni ajratish tartibini soddalashtirish bo'yicha topshiriqlar berildi. Erkin iqtisodiy zona loyihalarini ma'muriy boshqarish kengashi 17 tadan 4 ta organga qisqartiriladi va samaradorlikni oshirish uchun kengaytirilgan tasdiqlash vakolatlariga ega mintaqaviy komissiyalar tuzildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola O'zbekiston mintaqalarida sanoatni rivojlantirishning hududiy jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan nazariy-analitik tadqiqot hisoblanadi. Tadqiqot metodologiyasi ikkilamchi ma'lumotlar manbalarini, jumladan, rasmiy statistik agentliklar ma'lumotlari, hukumat hisobotlari, akademik nashrlar va xalqaro tashkilotlar tahlillarini tizimli tahlil qilishga asoslanadi. Nazariy umumlashtirish, qiyosiy tahlil va kritik sintez usullari qo'llanilgan. Jumladan, O'zbekistonning sanoat siyosatidagi tarixiy o'zgarishlar va mavjud institutsional mexanizmlarning samaradorligi tanqidiy nuqtai nazardan baholangan. Maqsad, mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechimlari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni shakllantirishdir. Tadqiqot doirasida to'plangan ma'lumotlar asosida O'zbekiston sanoatining joriy holati, mintaqaviy tafovutlar va erkin iqtisodiy zonalar hamda kichik sanoat zonolari faoliyatidagi yutuq va kamchiliklar xolisona o'rganilib, kelajakdagi strategik yo'nalishlar uchun poydevor yaratilgan.

Xulosa

O'zbekiston so'nggi yillarda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi. Sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi oshdi, ishlab chiqarish tarkibi diversifikatsiyalandi va qator yuqori texnologiyali sohalar jadal o'sdi. Bu mamlakatning iqtisodiy murakkablik indeksida yuqorilashiga zamin yaratdi. Biroq, mintaqalararo nomutanosibliklar, sanoat korxonalarining geografik jihatdan notekis taqsimlanishi va mavjud institutsional mexanizmlar, xususan, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalar faoliyatidagi muammolar mintaqaviy rivojlanishning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan ushbu zonalar faoliyati "qoniqarsiz" deb baholanishi mavjud muammolar chuqurligini ko'rsatadi. Asosiy muammolar qatoriga ma'muriy tartib-qoidalarning murakkabligi va byurokratiya, infratuzilma (energiya resurslari va suv ta'minoti) bilan bog'liq muammolar, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda kutilgan darajaga erishilmasligi hamda malakali kadrlarning yetishmasligi kiritilishi mumkin. Bu muammolar erkin iqtisodiy zonalar va



kichik sanoat zonalarining to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda va ularning hududiy sanoatlashtirishdagi samaradorligini pasaytirmoqda. Bu muammolarni hal qilish uchun quyidagicha choralar ko'rish zarur:

Qo'shimcha qiymat zanjirlarini rivojlantirish va diversifikatsiya: Mintaqalarning tabiiy resurslari va iqtisodiy salohiyatiga asoslanib, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish, xomashyo eksportidan voz kechish va uni chuqur qayta ishlashga yo'naltirish, mintaqaviy klasterlarni rivojlantirish orqali o'zaro hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Innovatsiyalar va texnologik modernizatsiya: Sanoat korxonalariga zamonaviy texnologiyalarni (shu jumladan "Sanoat 4.0" elementlarini) joriy etish, innovatsion ekotizimni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlari bilan korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash.

Infratuzilmani rivojlantirish: Sanoat parklari va EIZlarda, shuningdek, boshqa mintaqaviy sanoat zonalarida barqaror va sifatli infratuzilma (elektr energiyasi, gaz, suv ta'minoti, zamonaviy yo'l va temir yo'l tarmoqlari, internet) yaratishga ustuvor ahamiyat berish.

Inson kapitalini rivojlantirish: Mintaqaviy sanoat ehtiyojlariga mos keladigan malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, kasb-hunar ta'limi muassasalarini modernizatsiya qilish, korxonalar bilan hamkorlikda dual ta'lim dasturlarini joriy etish.

Ekologik jihatdan barqaror sanoatlashtirish: Atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan "yashil" texnologiyalarni joriy etish, resurs tejamkor va energiya samarador ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash orqali barqaror sanoat rivojlanishini ta'minlash. Ushbu takliflarning kompleks tarzda amalga oshirilishi O'zbekiston mintaqalarida sanoatni yanada barqaror, inklyuziv va raqobatbardosh rivojlantirishga xizmat qiladi, natijada aholining turmush darajasi yaxshilanadi va mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyati oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Institut za makroekonomicheskiye i regionalnye issledovaniya (MHTI). O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishida 2017-2024 yillar oralig'idagi o'sish tahlili. – https://www.imri.uz/uploads/journal/2024-05/1715674066-6_son.pdf
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasi sanoat ishlab chiqarishi, 2024 yil yanvar-dekabr. – <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry>
3. Boysoatov, K. O'zbekistonda Innovatsion Siyosat Va Uning o'ziga xos xususiyatlari. – <https://uz.scribd.com/document/468864708/Ўзбекистонда-Иновацион-Сиёсат-Ва-Унинг-Ўзига-Хос-Хусусиятлари>



4. Trushin, E. Uzbekistan's industrial policy is at a crossroads. – <https://blogs.worldbank.org/europeandcentralasia/uzbekistan-industry-crossroads-after-long-period-state-control>
5. Mirziyoyev, Sh. Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini tahlil qilishga bag‘ishlangan yig‘ilish bayonoti. – <https://president.uz/uz/lists/view/4243>